FARG‘ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 29-oktabr | 265-11-164-Q/24 | Furqat tuman hokimligi

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi «Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 38-moddasiga (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plamlari, 2020-yil, O‘RQ-642-son) va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plamlari, 2020-yil, O‘RQ-641-son) qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5- dekabr kunidagi «Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 965-sonli Qaroriga asosan tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish joylarini eng kam miqdorini belgilash, zaxiraga qo‘yish hamda qo‘shimcha ish joylari yaratish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi **“Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 965-sonli qaroriga hamda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tashkilotlar — ish beruvchilarga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o‘rinlarda muxtojlar deb ataladi) ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish majburiyati yuklanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash hamda ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2025-yilda muhtojlar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 2-bandiga ko‘ra quyidagi asosiy tushunchalar ma’lumot uchun qabul qilinsin:

odam savdosi qurboni — majburiy mehnat yoki xizmatlardan, qullik yoki qullikka o‘xshash urf-odatlardan, boshqa shaxs tomonidan fohishabozlikda ekspluatatsiya qilishdan yoki shahvoniy ekspluatatsiya qilishning boshqa shakllaridan, erksiz holatdan yoxud insonning organlari va to‘qimalari olib qo‘yilishidan jabrlangan shaxs;

nogironligi bo‘lgan shaxs — jismoniy, aqliy, psixik yoki sensor (hissiy) buzilishlar mavjudligi oqibatida hayot faoliyati cheklanishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb e’tirof etilgan va ijtimoiy yordam va muhofazaga muhtoj bo‘lgan shaxs;

pensiyaoldi yoshi — erkaklar uchun 58 yoshdan 60 yoshga to‘lishgacha va ayollar uchun — 53 yoshdan 55 yoshga to‘lishgacha pensiyaga chiqishdan oldingi yosh;

ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish — tashkilot (ish beruvchi) tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun o‘z mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan ish o‘rinlari;

ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash — ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tashkilotning ro‘yxatdagi o‘rtacha xodimlari sonining foizlarida tuman hokimining qarori bilan belgilanadigan ish o‘rinlari soni.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar - 2023-yil 21-dekabrdagidagi PQ-401ning 8,2 bandiga muvofiq ijtimoiy yordam va muhofazaga muhtoj bo‘lgan shaxs;

ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish — tashkilot (ish beruvchi) tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun o‘z mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan ish o‘rinlari;

ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash — ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tashkilotning ro‘yxatdagi o‘rtacha xodimlari sonining foizlarida tuman hokimining qarori bilan belgilanadigan ish o‘rinlari soni.

4. Muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga quyidagi talablar belgilansin:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun — bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun — ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rinlari.

5. Mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yilgan korxona va tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda ish beruvchilar deb ataladi):

- yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlash, shuningdek bu haqida tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga axborot berishlari;

- har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risidagi axborotni tasdiqlovchi xujjatlarini ilova qilgan xolda taqdim etishlari shart;

6. Ish beruvchilar tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida ahborot taqdim etmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi hamda muhtojlarni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining yo‘llanmasi asosida zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish tashkilot tomonidan asossiz rad etilishi tashkilot mansabdor shaxslarining qonun xujjatlarida belgilangan javobgarligiga olib kelishligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

7. Muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlari ishga joylashtirish tashkilotlar tomonidan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi yo‘llanmasi bo‘yicha yoki mustaqil ravishda amalga oshirilishi inobatga olinsin.

8. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash masalalari bo‘yicha tuman hokimlarining qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilish hamda besh kun muddatda ish beruvchi tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazish vazifasi yuklatilsin.

9. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (B.Abdullayev) tuman ishchi guruhiga:

- **yil yakuniga qadar** - ish beruvchilar tomonidan ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yilganligi to‘g‘risida ma’lumotni;

- **har oyning 10 sanasiga qadar** - ish beruvchilar tomonidan muhtojlarni ishga qabul qilinishi bo‘yicha ma’lumotni hamda mazkur qarorni bajarmagan ish beruvchi tashkilot mansabdor shaxslariga jarima solinganligi to‘g‘risida umumlashtirilgan axborotlarni yuborish vazifasi yuklatilsin;

10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli buyrug‘iga (AV ro‘yxat raqami №3163, 31-mart 2019-yil) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - rejadan ortiq qabul qilingan har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 barobari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 5 dekabr kunidagi 965-sonli qarorining 2-bandiga asosan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar rahbarlari hamda mas’ul tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son qaroriga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini yaratish bo‘yicha tuman hokimi qarorining bajarilmaganligi uchun shaxsan javob berishi qayd etilsin.

12. Mehnat to`g`risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tashkilotlar — ish beruvchilarga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o`rinlarini zaxiraga qo`yish majburiyati yuklanganligi inobatga olinsin.

13. Ushbu qaror “Navbaxor” ro‘znomasining navbatdagi sonida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman xokimligi Axborot xizmati (U.Bozorov) hokimlik veb-saytiga 3 kunlik muddatda joylashtirilishini ta’minlasin.

14. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalari orqali rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

15. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Mavlonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **ASRONKULOV ELYORBEK.MADAMINOVICH**

Furqat tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
265-11-164-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash hamda ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha

KOMISSIYA TARKIBI

1	B.Mavlonov	– Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari	– rahbar
2	B.Abdullayev	– Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i	– kotib
3	A.A’zamov	– tuman hokimi o‘rinbosari	– a’zo
4	Z.Alixadjayeva	– tuman hokimi o‘rinbosari	– a’zo
5	M.Ortiqov	– tuman halq ta’limi bo‘limi boshlig‘i	– a’zo
6	B.Meliyev	– tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i	– a’zo
7	J.Xoshimov	– tuman inson ijtimoiy xizmat markazi boshlig‘i	– a’zo

Furqat tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
265-11-164-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Furqat tumani bo‘yicha 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun korxona va tashkilotlarda band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish to‘g‘risida manzilli
M A ’ L U M O T

T/r	**Tashkilot STIRi**	**Topshiriq belgilangan korxona nomi**	Jami xodim-lar soni	Oldingi yillar hisobga olingan holda zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashganlar soni	Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:								
						58 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun	**Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha**	**Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun**	**Nogiron-lar uchun**	**Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun**	**Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun**	**Odam savdosi qurboni uchun**	**Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun**	**6467 yil 65.56dagi PQ-845ning ²,6 bandi: Oilaviy (maishiy) zo‘rovonlik natijasida jabrlanganlar uchun**

							ta’lim olgan bitiruvchilari uchun							
1	64¹ 4²² 4 8⁰	54-MTM	86	2	2	1	1							
2	64⁰²³ 67 7²	54-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	⁰5	1	2	1	1							
3	64⁰²³⁰ 8 9³	55-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	98	1	3	1	1		1					
4	64¹ 4² 59 4²	56-MTM	6²	1	1		1							
5	64¹ 5³ 96 58	56-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	87	2	2		2							
6	64⁰²³ 96 ² 9	56-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	9³	3	4	1	2			1				
7	64¹ 4² 4³ 56	57-MTM	77	1	2		1			1				
8	6476² 7⁰ 66	57-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	⁰³	1	5	1	1	1	1	1				
9	64¹ 4858	58-MTM	67	1	1	1								

	^{2}8													
10	**64^{023}96 7^{3}**	**58-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**99**	3	4	2	2							
11	**64^{1}4^{2}5^{1} ^{2}8**	**59-MTM**	**76**	1	2		1		1					
12	**64^{023}67 65**	**59-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**94**	1	2		1		1					
13	**64^{1}4^{2}5^{1} ^{10}**	**5^{0}-MTM**	**7^{3}**	4	2		1		1					
14	**6476^{2}7^{0} 7^{3}**	**5^{0}-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**^{12}**	2	5	2	3							
15	**64^{1}4^{22}4 4^{1}**	**5^{1}-MTM**	**6^{1}**	1	1				1					
16	**6476^{2}7^{0} 8^{0}**	**5^{1}-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**98**	3	3	1	1		1					
17	**6476^{2}7^{0} 4^{1}**	**5^{2}-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**9^{0}**	2	4	1	2		1					
18	**64^{1}4^{2}57 5^{2}**	**5^{3}-MTM**	**7^{0}**	3	1	1								
19	**64^{1}4858 97**	**5-MTM**	**6^{1}**	1	1		1							
20	**64^{023}0 8 ^{00}**	**5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**^{2}6**	5	4		2		1	1				
21	**64^{1}4^{22}4 ^{0}5**	**64-MTM**	**68**	1	2		1		1					
22	**6476^{2}7^{0} 98**	**64-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**9^{3}**	2	1		1							
23	**6476^{2}79 ^{33}**	**65-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**^{3}5**	1	5	1	3		1					
24	**6476^{2}7^{0} ^{0}5**	**66-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**^{1}7**	6	4		2	1		1				
25	**64^{023}67 97**	**67-umumiy o‘rta ta’lim maktabi**	**^{0}5**	3	2		1		1					

26	64⁰²²¹⁰87	68-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	⁰5	3	3	1	2							
27	64¹4²4²³⁰	69-MTM	74	4	2	1	1							
28	64⁰²³6789	69-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	8²	3	3		1		1		1			
29	64¹4²²²⁰4	6⁰-MTM	84	2	3		2		1					
30	6476²7⁰¹²	6⁰-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	8³	2	3	1	1			1				
31	64¹4²59²⁰	6¹-MTM	74	1	1		1							
32	6476²7⁰²9	6¹-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	³¹	5	3	1	2							
33	64¹4²84²7	6²-MTM	69	1	1		1							
34	6476²7⁰³7	6²-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	⁰9	2	4		1	1		1	1			
35	64¹4²4³48	6³-MTM	6⁰	2	1		1							
36	64⁰²³6758	6³-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	9¹	2	3		2	1						
37	64¹4²59⁰6	6-MTM	75	2	2		1		1					
38	64⁰²³4³²4	6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	³4	2	5	2	2			1				
39	64¹458866	74-MTM	8⁰	1	3	1	2							
40	64⁰²³67⁰4	74-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	78	1	1		1							
41	64¹4858¹¹	75-MTM	69	3	1	1								
42	64⁰³48²86	75-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	9¹	5	2	1	1							

43	64¹4²²47³	76-MTM	6⁰	2	1		1							
44	64⁰²³⁰886	76-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	67	1	1		1							
45	64⁰²³4³¹7	77-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	74	2	2		1		1					
46	64¹4²5913	78-MTM	6²	2	2	1	1							
47	6465⁰¹996	78-IDUM	89	1	3	1	2							
48	64⁰³¹997	79-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	8³	4	3	2	1							
49	64¹4858³6	7⁰-MTM	6³	2	2		1			1				
50	64⁰²³968⁰	7⁰-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	⁰7	2	5		2		1	1		1		
51	64¹74⁰486	7¹-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	95	3	2	1	1							
52	64¹4²56³7	5²-MTM	67	2	2		1		1					
53	64⁰²³9612	7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	96	2	3	1	2							
54	64¹4²²498	68-MTM	69	0	2		1		1					
55	74994692⁴	7²-DMTT	6¹	1	1		1							
56	64¹4²³496	7¹-MTM	67	0	2		1		1					
57	64¹4²²458	8-MTM	69	1	1		1							
58	64⁰²³⁰8¹8	8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	²7	3	3		2		1					
59	64¹756¹76	95-MTM	75	1	1		1							

60	64[1] 4[2] 4[2] [2 3]	9-MTM	67	1	1				1					
61	74[3 1 3] 8[3] [3] 5	97-DMTT	66	1	2	1	1							
62	64[1] 4[2] 59 59	[2]-DMTT	75	1	3	1	1		1					
63	64[1] 4[2 1 3] [3 1]	[3]-DMTT	68	2	2	1					1			
64	74[3 2] 56[3] [3] 5	7[2]-umumiy urta ta'lim maktabi	7[0]	3	3	1	1		1					
65	64[0 2 3] 96 98	9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	84	3	2		1			1				
66	64[0 2 3] 96 [3] 7	[0]-umumiy o'rta ta'lim maktabi	85	3	2	1	1							
67	64[0 2 3] 96 [0] 5	[1]-umumiy o'rta ta'lim maktabi	8[1]	3	3	1	2							
68	64[0 2 3 0] 8 78	[2]-umumiy o'rta ta'lim maktabi	94	5	5		4		1					
69	6476[2] 7[0] 58	[3]-umumiy o'rta ta'lim maktabi	[1]4	4	3		2			1				
70	64[1] 4[2] 57 45	79-MTM	67	1	1		1							
71	64[1] 74[3 2] 4[0]	8[3] MTM	68	0	2	1	1							
72	64[1] 5689 59	BARKAMOL AVLOD bolalar markazi	7[3]	4	2		1		1					
73	6489555 [3] 8	Furqat obodonlash tirish boshqarmasi	5[2] 5	16	9	1	1	1	2	1		1	1	1
74	644645[0] 8[0]	Furqat tuman madaniyat bo'limi	7[3]	2	2		1			1				
75	64[1] 585[1] 8[3]	Furqat tuman sport maktabi	9[3]	4	5	1	3		1					

76	**74⁰⁰¹⁰⁰ ¹7**	**Furqat tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi**	**⁰8**	0	3		1		2						
77	**6496² 98 95.**	**Furqat tumani kasb-hunar maktabi**	**555**	6	5	1	2	1							1
78	**644645¹ 45**	**Furqat tumani Sanitariya-E O va J Si bo'limi**	**⁰³**	4	4	1	2		1						
79	**6446456 ¹8**	**Furqat yo'llardan foydalanish korxonasi**	**¹7**	6	3	1	2								
80	**644645⁰ ²9**	**Tuman tibbiyot birlashmasi**	**5784**	249	31	5	20		2	4					
81	**64¹ 6⁰ 7³ ³5**	**Furqat Irrigatsiya bo'limi**	**86**	4	4		2	1		1					
				444	239	46	125	7	34	19	3	2	1	2	

Furqat tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
265-11-164-Q/24-son qaroriga
3-ilova

20___ yil «___» _____ oyi uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida
MA’LUMOT

1. Furqat tuman hokimining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari soni.

2. Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni	**Hisobot davri oxiridagi holati bo‘yicha ishlamoqda (kishi)**	**ulardan ishga joylashtirilganlar**	
		hisobot oyida	**yil boshidan boshlab**
Jami:			
shu jumladan:			
o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar			
umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari			
safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar			
nogironlar va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar			
jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar			
odam savdosi qurbonlari			
Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar -			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo‘sh ish o‘rinlari soni, hisobot davri oxiriga _____ ish o‘rinlari.

Tashkilotning rahbari _____ (imzo)

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i (inspektor) _____ (imzo)